O'ZBEKISTON VA FRANSIYA STRATEGIK SHERIKLIGI: SIYOSIY MULOQOT DINAMIKASI VA MAVJUD INSTITUTSIONAL CHAQIRIQLAR

M. Sunnatova
sunnatovamadinka@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlarning zamonaviy bosqichi, xususan, ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklikning o'rnatilishi va uning xalqaro-siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida oliy darajadagi muloqotlar va erishilgan shartnomaviy-huquqiy bitimlar bilan birga, ikki tomonlama munosabatlarda saqlanib qolayotgan logistik-geografik cheklovlar, iqtisodiy va regulyativ nomutanosibliklar hamda ko'p vektorli diplomatiyadagi muvozanatni saqlash masalalari kabi amaliy chaqiriqlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Fransiya, strategik sheriklik, siyosiy muloqot, Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, ko'p vektorli tashqi siyosat, Fransiya Taraqqiyot Agentligi (AFD).

1.KIRISH. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekiston Respublikasining ko'p vektorli va muvozanatli tashqi siyosatida Yevropa yo'nalishi, xususan, Fransiya Respublikasi bilan hamkorlik alohida strategik o'rin tutadi. Fransiyaning BMT Xavfsizlik Kengashidagi doimiy a'zoligi va Yevropa Ittifoqidagi yetakchi maqomi O'zbekiston uchun mintaqaviy manfaatlarni xalqaro maydonda ilgari surishda muhim strategik ahamiyatga ega. Qolaversa, Parijning Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi global moliya institutlaridagi kuchli ta'siri O'zbekistondagi islohotlarni xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlovchi ishonchli diplomatik dastak hisoblanadi. So'nggi yillarda Toshkent va Parij o'rtasidagi diplomatik va siyosiy muloqot sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, munosabatlar ijobiy va barqaror xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ularni har tomonlama rivojlantirish va amaliy loyihalarga aylantirishda bir qator institutsional, logistik va geo-iqtisodiy chaqiriqlar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi siyosiy ishonch va oliy darajadagi muloqot tizimli xarakterga ega. Davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari va erishilgan kelishuvlar ikki tomonlama sheriklikni sifat jihatidan boyitdi. [1].

- Strategik sheriklik darajasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron o'rtasida imzolangan "Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risida Qo'shma deklaratsiya" ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qamrovli va uzoq muddatli hamkorlikning normativ-huquqiy poydevorini mustahkamladi [2].
- Vazirliklararo va institutlararo muloqot: Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi hamda Fransiya Taraqqiyot Agentligi (AFD) bilan uzoq muddatli hamkorlik dasturlarining amalga oshirilishi munosabatlarning institutsionallashuvini ta'minlamoqda [3].
- Parlamentlararo va institutsional muloqot: Qonun chiqaruvchi organlar o'rtasidagi aloqalar ham tizimli rivojlanmoqda. Xususan, 2008-yilda Oliy Majlis Senatida, 2010-yilda esa Qonunchilik palatasida "O'zbekiston-Fransiya" do'stlik guruhlari tuzilgan bo'lib, shuningdek, 2008-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Fransiya inson huquqlari himoyachisi o'rtasida hamkorlik bitimi imzolangan [5].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

• Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik: Mintaqaviy xavfsizlik (Afg‘oniston omili), transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashish hamda YI–Markaziy Osiyo formati doirasida Toshkent va Parijning strategik yondashuvlari bir-biriga mos keladi. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda siyosiy-iqtisodiy aloqalar bilan birga “xalq diplomatiyasi” ham muhim o‘rin tutadi. Bunga Luvr muzeyida tashkil etilgan O‘zbekiston madaniy merosi ko‘rgazmasini yaqqol misol qilish mumkin [6].

Ikki tomonlama aloqalardagi mavjud chaqiriqlar haqida so’z yuritar ekanmiz, O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida ochiq siyosiy ziddiyatlar mavjud bo‘lmasada, o‘zaro hamkorlikning amaliy samaradorligini oshirishda quyidagi obyektiv va subyektiv chaqiriqlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, geografik uzoqlik va logistika muammolari. Ikki mamlakat o‘rtasidagi transport-logistika zanjirlarining murakkabligi va an'anaviy yo‘laklardagi beqarorlik sharoitida Transkaspiy yo‘lagining (Middle Corridor) narxi qimmatligi tovar almashinuvi va qo‘shma loyihalar doirasida yuk yetkazib berish vaqtini uzaytirmoqda [4].

Ikkinchidan, iqtisodiy hamkorlikning bir tomonlama yo‘nalganligi. Fransuz sarmoyasi O‘zbekistonda asosan yirik energetika va infratuzilma korporatsiyalari (Orano, EDF, TotalEnergies, SUEZ, Veolia) doirasida to‘plangan [3; 4]. Kichik va o‘rta fransuz biznesining O‘zbekiston bozoriga kirish jarayoni va iqtisodiy aloqalarni boshqa sohalarni ham qamrab olishi kutilganidan sekinroq kechmoqda.

Uchinchidan, me'yoriy-huquqiy va texnik standartlardagi nomutanosiblik. Yevropa Ittifoqining qat'iy "yashil" standartlari, uglerod solig‘i va texnik me’yorlariga O‘zbekiston sanoat korxonalarining bosqichma-bosqich moslashuvi qator byurokratik jarayonlar va vaqt talab etadi.

Qolaversa, Tashqi siyosiy muvozanat va ko‘p vektorlilikni ham sanab o’tsak bo’ladi. O‘zbekiston ko‘p vektorli va muvozanatli tashqi siyosat olib borayotgan bir paytda, Yevropa va G‘arb tashabbuslarida ishtirok etish bilan birga mintaqaviy va yirik an'anaviy sheriklar bilan geosiyosiy balansni saqlab turish diplomatik mahoratni talab etadi [4].

4. XULOSA VA TAVSIYALAR. Umuman olganda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi strategik sheriklik yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Ikki tomonlama siyosiy muloqot ham yuqori o‘sish sur'atiga ega. Biroq bu munosabatlardan ko'proq amaliy natija olish uchun qator muammolarni hal qilish zarur. Xususan, mavjud logistik va institutsional g‘ovlarni bartaraf etish ustuvor vazifa hisoblanadi. Hamkorlikning amaliy natijadorligini oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim. Eng avvalo, Transkaspiy yo‘lagida transport va logistika infratuzilmasini kengaytirish kerak. Buning uchun Yevropa Ittifoqining Global Gateway tashabbusi va Fransiya sarmoyasidan unumli foydalanish mumkin. Shu asosda mintaqada xalqaro yuklarni taqsimlash majmuasini barpo etish tavsiya qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy hamkorlikni faqat bitta yo'nalish bilan cheklab qo'ymaslik kerak. Ikki mamlakat xususiy sektorlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri biznes muloqotini kuchaytirish zarur. Bunga Fransiya ishbilarmonlar federatsiyasi (MEDEF) platformasini faollashtirish orqali erishish mumkin. Natijada nafaqat energetika sohasiga, balki boshqa iqtisodiy va texnologik tarmoqlarga ham fransuz investitsiyalari jalb qilinadi. Shu bilan birga, eksport-import jarayonlaridagi regulyativ to‘siqlarni qisqartirish talab etiladi. Buning eng yaxshi yechimi — Fransiya ko‘magida O‘zbekistonda ekologik audit va sertifikatlashtirish markazlarini tashkil etishdir. Ushbu markazlarning Yevropa standartlariga to‘liq javob berishi mamlakatlar o'rtasidagi institutsional muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davronova Z. Uzbek-French relations as an Organization of international cultural and historical experience // European Scholar Journal (ESJ). – 2022. – Vol. 3, No. 5. – P. 53-59
2. Gazeta.uz. O'zbekiston va Fransiya munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko'tardi: Toshkent va Parijda imzolangan qo'shma deklaratsiya va kelishuvlar // Gazeta.uz rasmiy axborot portali. – 2025-yil mart. (URL: https://www.gazeta.uz/ru/2025/03/13/strategic-partnership/).
3. Ministère de l'Europe et des Affaires étrangères. Relations bilatérales entre la France et l'Ouzbékistan: Cadre politique et coopération stratégique. – Paris, 2025.
4. Nuz.uz. Узбекистан и Франция: динамика стратегического партнерства, вызовы и перспективы экономического сотрудничества // Новости Узбекистана (Nuz.uz). – 2025. (URL: https://nuz.uz/).
5. To'rayeva N. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi davlat boshqaruvi va parlamentlararo munosabatlar // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2023. – Vol. 4. – № 2. – B. 238-242.
6. Sabirov A. O'zbekiston va Fransiya: geografik jihatdan uzoq, ammo ruhan yaqin // Markaziy Osiyo xalqaro instituti (IICA) tahliliy maqolasi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.